1-ilova

**“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturida Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2025-yil 1-yarim yilligida amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan**
**ISH REJASI**

| T/r | T/r | Chora-tadbirlar nomi | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 1. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 1-ilova, 22-bandi:**<br>Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalarini oshirish. Bunda,<br>1. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar ehtiyojlari asosida Davlat byudjeti hisobidan stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura uchun qabul kvotalariga talabnomalarni qabul qilish. | 2025-yil iyun | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)** |
| 2. | 2. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 21-bandi:**<br>**Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, ma’naviyat, madaniyat va san’at kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishlari** bo‘yicha ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan fundamental tadqiqotlar sonini **25 taga** yetkazish. Bunda,<br>1. 2025 yil I chorakda **9 taga**;<br>2. 2025 yil II chorakda **15 taga** yetkazish belgilangan. | 2025-yil mart<br><br>2025-yil iyun | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 3. | 3. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 22-bandi:**<br>Ilmiy dasturlar doirasida bajariladigan fundamental tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yiladigan **yetakchi xorijiy ilmiy maktablar** sonini **4 taga** yetkazish. Bunda,<br>2025 yil 1-yarim yillikda **2 taga** yetkazish. | 2025-yil iyun | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 4. | 4. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 23-bandi:**<br>Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan **yangi innovatsion (spin-off) korxonalar** sonini **28 taga yetkazish**. Bunda,<br>1. 2025 yil I chorakda **23 taga**;<br>2. 2025 yil II chorakda **24 taga** yetkazish belgilangan. | 2025-yil mart,<br>2025-yil iyun | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi **(R.Ergashev)** |
| 5. | 5. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 26-bandi:** | 2025-yil iyun | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi **(R.Ergashev)** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Ichki va tashqi bozorlarda **tijoratlashtirilgan** yangi ishlanmalar sonini **300 taga** yetkazish. Bunda,<br>2025-yil 1-yarim yillikda **110 taga** yetkazish belgilangan. | | |
| 6. | 6. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 27-bandi:**<br>**Xususiy sektor tomonidan ilm-fan va innovatsiyalarga** investitsiyalar hajmini **6 mlrd so‘mga** oshirish. Bunda,<br>2025-yil 1-yarim yillikda **2 mlrd so‘mga** yetkazish belgilangan. | 2025-yil iyun | Ilm-fanga investitsiya va xorijiy grantlarni jalb qilish boshqarmasi **(U.Hoshimov)**<br>Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi (R.Ergashev)<br>Startap ekotizimini rivojlantirish bo‘limi (A.Ilxamov) |
| 7. | 7. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 28-bandi:**<br>Innovatsion faoliyat, shu jumladan IT-parklar faoliyati natijasida yaratilgan **yangi ish o‘rinlari** sonini **16 800 taga** oshirish. Bunda,<br>1. 2025 yil I chorakda **14 000 taga**;<br>2. 2025 yil II chorakda **15 000 taga** yetkazish belgilangan. | 2025-yil mart,<br>2025-yil iyun | Startap ekotizimini rivojlantirish bo‘limi **(A.Ilxamov)** |
| 8. | 8. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son Farmonining 3-ilova, 29-bandi:**<br>Yaratilgan **yangi ishlanmalar va texnologiyalar** sonini **250 taga** yetkazish. Bunda,<br>1. 2025 yil I chorakda **225 taga**;<br>2. 2025 yil II chorakda **230 taga** yetkazish belgilangan. | 2025-yil mart,<br>2025-yil iyun | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi **(R.Ergashev)** |

2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan Innovatsion rivojlanish agentligiga 2025-yil 1-yarim yilligida amalga oshirilishi yuklatilgan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan**

**ISH REJASI**

| T/r | T/r | Chora-tadbirlar nomi | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 9. | 1. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi PQ-246-son qarorining 9.2-bandi:**<br>Har yili 1-martga qadar xalqaro reyting va indekslar biriktirilgan ilmiy tashkilotlarning Respublika kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik rejalari hamda xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha mustaqil izlanuvchilarning qo‘shimcha talabi asosida ilmiy loyihalarning mavzulari portfelini shakllantirish. | 2025-yil 1-mart | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 10. | 2. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-170-son qarorining ilovasi 8-bandi:**<br>G‘o‘zaning tezpishar, serhosil, issiqqa va qurg‘oqchilikka chidamli (garmsel), suv kam talab qiladigan, tola sifati va chiqimi yuqori bo‘lgan, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, ingichka tolali navlarini yaratish hamda ularning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish, resurs tejaydigan agrotexnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha loyihalarni shakllantirish va ularni tanlovlar asosida moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish. | 2025-yil 18-mart | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 11. | 3. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-170-son qarorining 4.1-bandi:**<br>Innovatsion rivojlanish vazirligi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda g‘o‘zaning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos, tezpishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, tola sifati yuqori bo‘lgan ingichka tolali navlarini yaratish hamda ularning birlamchi urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish, resurs tejaydigan agrotexnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha Institut tomonidan taqdim etilgan ilmiy loyihalarga tanlovlar asosida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida mablag‘lar ajratib borilishini ta’minlash. | 2025-yil 18-mart | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 12. | 4. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son qarorining 1.3.74.1-bandi:**<br>Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishda Mas’ul xo‘jalik boshqaruv organlarining faolligini oshirish. Bunda, | 2025-yil 19-mart | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi **(R.Ergashev)** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 1. Ilmiy dasturga kiritilgan har bir ishlanma alohida ishlab chiqilgan biznes-reja va xarajatlar smetasiga asosan moliyalashtirilishini va ularni belgilangan muddatlarda joriy etish asosida mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. | | |
| 13. | 5. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarorining 5-ilova 29.2-bandi:**<br>“O‘simliklar klinikasi” bilan kooperatsiya asosida yuqori daromadli bulg‘or qalampirini yetishtirish. Bunda,<br>2. Hokim yordamchilari va mahalla bankiri tomonidan ushbu loyihalarni moliyalashtirishga ko‘maklashish. | 2025-yil 25-mart | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi **(R.Ergashev)** |
| 14. | 6. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarorining 5-ilova 29.1-bandi:**<br>“O‘simliklar klinikasi” bilan kooperatsiya asosida yuqori daromadli bulg‘or qalampirini yetishtirish. Bunda,<br>1. Marhamat tumanidagi **200 ta** kambag‘al oilalar xonadonlarida “Yava va ferari F1” navli 3 yillik bulg‘or qalampiri ko‘chatlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish. | 2025-yil 25-mart | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi **(R.Ergashev)** |
| 15. | 7. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-oktabrdagi PQ-378-son qarorining 1-ilova 20.2-bandi:**<br>Fundamental, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni bajarish. Bunda,<br>Ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni Universitet faoliyatiga tatbiq etish. | 2025-yil 25-mart | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)** |
| 16. | 8. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-son qarorining 1-ilova 15.1-bandi:**<br>Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot loyihalari ko‘lamini kengaytirish. Bunda,<br>Seysmologiya va seysmik chidamli qurilish yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot loyihalari uchun har yili kamida bir marotaba tanlov e’lon qilish. | 2025-yil 17-aprel | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 17. | 9. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-oktabrdagi PQ-5269-son qarorining 1-ilova 19-bandi:**<br>Hududning tuproq-iqlim sharoitini hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish turlarini inobatga olgan holda subtropik (anor, xurmo, zaytun, chilonjiyda), sitrus (limon, mandarin, kivi, ananas) hamda sabzavot-poliz ekinlarini yetishtirish muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy loyihalar tanlovini e’lon qilish. | 2025-yil 25-aprel | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 18. | 10. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-oktabrdagi PQ-378-son qarorining 1-ilova 20.1-bandi:**<br>Fundamental, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni bajarish. Bunda,<br>Yoshlarning fundamental, amaliy innovatsion va startap loyihalardagi ishtirokini kengaytirish, ularni ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha yangi loyihalar yaratishga o‘rgatish uchun treninglar tashkil qilish. | 2025-yil 30-aprel | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 19. | 11. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarorining 19-bandi:**<br>2023-yil 1-yanvardan boshlab ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq o‘tkaziladigan tanlovlarda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid, xususan ommaviy sport, xotin-qizlar sporti va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish muammolariga yo‘naltirilgan kamida **10 ta** maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarga grant mablag‘lari ajratsin. Loyiha ijrochilari grant loyihalari tadqiqotlaridan kelib chiqib ajratiladigan mablag‘lar hisobidan ilmiy laboratoriya bazasini rivojlantirish, ilg‘or texnologik jihozlar bilan ta’minlash hamda sohaga oid ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish choralarini ko‘rsin. | 2025-yil 3-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 20. | 12. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarorining 16.1-bandi:**<br>Institutda jismoniy tarbiya va sport sohasining dolzarb yo‘nalishlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi belgilangan tartibda shakllantirilishini ta’minlasin. | 2025-yil 3-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 21. | 13. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarorining 16.2-bandi:**<br>Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tanlov va ilmiy ekspertiza natijalariga ko‘ra Institutga grantlar ajratilishini ta’minlash. | 2025-yil 3-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 22. | 14. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarorining 4-ilova 28-bandi:**<br>Jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun grantlar ajratish choralarini ko‘rish. Bunda,<br>1. Har yili jismoniy tarbiya va sport sohasida **10 tadan** kam bo‘lmagan grantlar loyihalarini Innovatsion rivojlanish vazirligiga kiritish.<br>2. Loyihalarni bajarish ishlarini jadallashtirish maqsadida yetuk professor-o‘qituvchilar hamda iqtidorli talabalar, magistrantlar va doktorantlardan iborat ilmiy guruhlarni tashkil qilish. | 2025-yil 3-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 23. | 15. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416-son qarorining 18-bandi:**<br>Innovatsion rivojlanish vazirligi 2023–2025 yillarda Universitetlar professor-o‘qituvchilari, magistr va doktorantlarining belgilangan tartibda tanlov natijalariga ko‘ra xorijiy nufuzli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga ilmiy stajirovkaga yuborilishini tashkil etish. | 2025-yil 8-may | Ilmiy stajirovkalarni va laboratoriya asbob-uskunalari xaridini tashkil etish bo‘limi **(S.Taxirov)** |
| 24. | 16. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PQ-275-son qarorining 13-bandi:**<br>Innovatsion rivojlanish vazirligi filologiya fanlari tarmog‘ining tegishli ixtisosliklari bo‘yicha yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, 2023-yildan boshlab Institutga doktorantura bo‘yicha qabul kvotalari ajratilishini ta’minlash. | 2025-yil 9-may | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)** |
| 25. | 17. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son qarorining 8.1-bandi:** | 2025-yil 10-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Innovatsion rivojlanish vazirligi yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish, uning salbiy ta'sirini kamaytirish va oqibatlarini yumshatish hamda tuproqlarni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy loyihalarni shakllantirish orqali ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirsin. | | qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 26. | 18. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-maydagi PQ-243-son qarorining 7.1-bandi:**<br>2022-yil 1-iyuldan boshlab har yili keng tarqalgan virusli infeksiyalar muammolarining ilmiy yechimini ta'minlashga qaratilgan loyihalarga tanlovlar asosida mablag'lar ajratilishini ta'minlash. | 2025-yil 16-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 27. | 19. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-maydagi PQ-246-son qarorining 9.5-bandi:**<br>Akademiyada malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini yanada oshirishga ko'maklashish maqsadida davlat siyosati va boshqaruvi sohasiga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslarni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy grantlarni ajratishni nazarda tutish. | 2025-yil 18-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 28. | 20. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qarorining 2.17.9-bandi:**<br>Biotibbiy hujayra mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun insonning o'zak hujayralari bankini yaratish. Bunda, O'zak hujayralari namunalarini doimiy ravishda to'plash va saqlash. | 2025-yil 25-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 29. | 21. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarorining 5-ilova 28.1-bandi:**<br>**14 ta** innovatsion tumanda yoshlarni innovatsion loyihalarga jalb qilish. Bunda,<br>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi **7 ta** texnoparkda **3 485 nafar** kambag'al oila a'zosi bo'lgan yoshlarni innovatsion tadbirkorlikka o'qitish. | 2025-yil 25-may | Innovatsion tumanlar bilan ishlash bo'limi **(N.Xaydarov)** |
| 30. | 22. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarorining 5-ilova 28.3-bandi:**<br>**14 ta** innovatsion tumanda yoshlarni innovatsion loyihalarga jalb qilish. Bunda,<br>3. "Inno X" biznes inkubator dasturi doirasida **245 nafar** kambag'al oila a'zolarining startap loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish. | 2025-yil 25-may | Innovatsion tumanlar bilan ishlash bo'limi **(N.Xaydarov)** |
| 31. | 23. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-maydagi PQ-197-son qarorining 12-bandi:**<br>Innovatsion rivojlanish agentligi jismoniy tarbiya va sport sohasining dolzarb yo'nalishlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun belgilangan tartibda davlat buyurtmasini shakllantirsin va har yili ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tanlov e'lon qilib borish. | 2025-yil 28-may | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 32. | 24. | **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PQ-275-son qarorining 1-ilova 11-bandi:**<br>Institut professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirib borish hamda yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish. Bunda, | 2025-yil 1-iyun | Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)**, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 1. Institut professor-o‘qituvchilari, xodimlari hamda yosh tadqiqotchilarini ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etish.<br>2. Professor-o‘qituvchilar hamda yosh tadqiqotchilarning xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda muntazam ravishda ishtirokini ta’minlash.<br>3. Professor-o‘qituvchilar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy maqolalarini Web of Science, Scopus, Google Scholar kabi xalqaro ma’lumotlar bazalarida indekslanuvchi jurnallarda chop etish va ularning iqtiboslik darajasini oshirish choralarini ko‘rish. | | Ilmiy-texnik axborot markazi (S.Nazirov) |
| 33. | 25. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dakabrdagi PQ-436-son qarorining 3-ilova 30.2-bandi:**<br>Innovatsion “yashil” texnologiyalar borasida ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi tizimli aloqalarni takomillashtirish. Bunda,<br>2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion “yashil” texnologiyalarni ishlab chiqish, transfer va joriy qilish sohasida salohiyatni oshirish uchun o‘rta va quyi bo‘g‘indagi malakali ishchi kuchi sifatini doimiy yaxshilab borish va korxonalar samaradorligini oshirishga ko‘maklashish. | 2025-yil 2-iyun | Tarmoq korxonalarida innovatsion ekotizimini rivojlantirish boshqarmasi **(S.Berdiyev)** |
| 34. | 26. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son qarorining 8.2-bandi:**<br>2022-2025-yillar davomida yerlar degradatsiyasi va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. | 2025-yil 10-iyun | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 35. | 27. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarorining 1-ilova 17.2-bandi:**<br>Universitet professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish. Bunda,<br>2. Universitet tomonidan respublikadagi oliy ta’lim muassasalariga ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.<br>3. Professor-o‘qituvchilar uchun Web of Science, Scopus, Google Scholar kabi xalqaro ma’lumotlar bazalarida ilmiy maqolalar chop etish va ularning iqtiboslik darajasini oshirish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etib borish.<br>4. Yetakchi xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma doktorantura dasturlarini yo‘lga qo‘yish. | 2025-yil 21-iyun | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)**,<br>Ilmiy-texnik axborot markazi (S.Nazirov) |
| 36. | 28. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonining 2-ilova 95.3.4-bandi:**<br>2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini **25 foizga** yetkazish evaziga yiliga qariyb **3 mlrd kub metr** tabiiy gazni tejash. Bunda,<br>Iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan texnologiyalarni sanoat darajasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish. | 2025-yil 25-iyun | Tarmoq korxonalarida innovatsion ekotizimini rivojlantirish boshqarmasi **(S.Berdiyev)** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 37. | 29. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son qarorining 1.63-bandi:**<br>Magistrant-talabalar va PhD-doktorantlarga ta’lim berish va ilmiy tadqiqotlarga rahbarlik qilish uchun olimlar va o‘qituvchilarning salohiyatini oshirish maqsadida yetakchi xorijiy texnologiya universitetlari professor va tadqiqotchilarini, shu jumladan vatandoshlarni jalb qilish. | 2025-yil 25-iyun | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)** |
| 38. | 30. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi PQ-5060-son qarorining 5.1.3-bandi:**<br>“Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi” nomli filmlar turkumini yaratish, ushbu maqsadda:<br>- hududlarning o‘ziga xos madaniyati, qadriyatlari, taniqli va tarixiy shaxslari haqida badiiy, hujjatli va animatsion filmlar, ijtimoiy roliklar, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, muhim voqea va hodisalarga bag‘ishlangan ro‘yxat tuzish hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash;<br>- ro‘yxat bo‘yicha Milliy kinematografiyani rivojlantirish markaziga filmlar yaratish uchun buyurtma berish;<br>- Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi tomonidan kinostudiyalarni jalb etgan holda filmlar ishlab chiqarishni tashkil qilish. | 2025-yil 25-iyun | Axborot xizmati **(M.Fayazova)** |
| 39. | 31. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarorining 2.1-bandi:**<br>Quyidagilarga:<br>- Innovatsion rivojlanish vazirligiga sun’iy intellekt sohasida ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash;<br>- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga sun’iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun texnologik sharoitlarni yaratish. | 2025-yil 25-iyun | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi **(O.Qahhorov)** |
| 40. | 32. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son qarorining 1-ilova 8.1-bandi:**<br>Sport kurashlari bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga zamonaviy ilmiy-innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb etish. Bunda,<br>Yosh tadqiqotchilarni sport kurashlari bo‘yicha ilmiy faoliyatga keng jalb etish. | 2025-yil 25-iyun | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)** |
| 41. | 33. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son qarorining 1-ilova 8.3-bandi:**<br>Sport kurashlari bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga zamonaviy ilmiy-innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb etish. Bunda,<br>Sport kurashlari bilan shug‘ullanishga qiziqishni oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarni tayyorlash hamda nashr etish. | 2025-yil 25-iyun | Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi **(A.Norov)** |
| 42. | 34. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-apreldagi PQ-5063-son qarorining 2.2.6.2-bandi:** | 2025-yil 25-iyun | Tarmoq korxonalarida innovatsion ekotizimini |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Respublikada vodorod energetikasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va bajarilgan amaliy ishlar yuzasidan yillik hisobot tayyorlash. Bunda,<br>2. 2021-yildan boshlab hisobotning doimiylik asosida “InnoWeek.uz” Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida taqdimotini o‘tkazish amaliyotini joriy qilish. | | rivojlantirish boshqarmasi<br>**(S.Berdiyev)** |
| 43. | 35. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarorining 6.2-bandi:**<br>Belgilansinki, davlat ilmiy dasturlarini shakllantirishda quyidagi tartib joriy etiladi:<br>b) Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan:<br>- tasdiqlangan tematik ilmiy mavzular bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq tanlovlar o‘tkaziladi, shuningdek, ilmiy loyihalarning texnik va moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasi tashkil etiladi;<br>- tasdiqlangan loyihalar bo‘yicha shartnomalar rasmiylashtiriladi;<br>- ilmiy loyihalarning oraliq va yakuniy monitoringi yuritiladi. | 2025-yil<br>25-iyun | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi<br>**(O.Qahhorov)** |
| 44. | 36. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarorining 2-ilova 203-bandi:**<br>2022-2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshiriladigan innovatsion ishlanmalarni ijoratlashtirish va startap loyihalar ro‘yxati.<br>Bunda,<br>Loyihalar:Oziq-ovqat mahsulotlari uchun funksional ta’m beruvchi qo‘shimchalar ishlab chiqarish; Ijrochi tashkilot:“Plus Ingredients” MCHJ; Summa:1 421; Ish o‘rni:10.<br>*(Loyihalar: Xromli charmdan oqsil gidrolizatini ishlab chiqarish chiqindilarini utilizatsiya qilish texnologiyasi; Ijrochi tashkilot: “Fan-Don” MChJ; Summa: 1388,4; Ish o‘rni:4)* | 2025-yil<br>25-iyun | Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi<br>**(R.Ergashev)** |
| 45. | 37. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi 1-son yigilish bayonining 15-bandi:**<br>Innovatsion rivojlanish vazirligi, Prezident ta’lim muassasalari agentligi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda ixtisoslashtirilgan maktablarning yuqori sinf o‘quvchilarini ilmiy innovatsion faoliyatga yo‘naltirish maqsadida ular ishtirokida kichik loyihalarni ishlab chiqsin va amalga oshirilishini ta’minlash. | 2025-yil<br>30-iyun | Startap ekotizimini rivojlantirish bo‘limi<br>**(A.Ilxamov)** |